O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI

*Oldingi tahrirga qarang.*

# 2022 — 2026-YILLARDA MAKTAB TA'LIMINI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA MILLIY DASTURNI TASDIQLASH TO'G'RISIDA

*(qarorning nomi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Maktab o'quvchilarining bilimi va ko'nikmalarini shakllantirish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, o'qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o'quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, maktab ta'limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish maqsadida, shuningdek, 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasini "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga muvofiq:

*(muqaddimada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

1. 2022 — 2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dastur (keyingi o'rinlarda — Rivojlantirish dasturi) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

*(1-band O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)*

2. Quyidagilar Rivojlantirish dasturining asosiy yo'nalishlari etib belgilansin:

maktab ta'limiga ilg'or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o'quv dasturini to'laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritish;

jamiyatda o'qituvchi kasbi nufuzini oshirish, pedagoglar uchun qulay ijtimoiy sharoitlar yaratish va mehnatini munosib rag'batlantirish;

o'qituvchilarning yoshlarga ta'lim va tarbiya berishdagi mas'uliyatini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish, ilg'or maktab direktori va namunali o'qituvchi mezonlarini ishlab chiqish hamda ular asosida rahbar va pedagog kadrlar faoliyatini baholab borish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, mazkur yo'nalishda uzluksiz monitoring, baholash va prognozlash mexanizmlarini yo'lga qo'yish, bola ta'lim-tarbiyasida oila, ayniqsa, ota-onaning o'rnini oshirish;

o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni kasblarga yo‘naltirish tizimini takomillashtirish;

Oldingi tahrirga qarang.

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga integratsiyasini kuchaytirish hamda inklyuziv ta’lim jarayonlarini jadallashtirish;

*(2-bandning sakkizinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)*

Oldingi tahrirga qarang.

umumiy o‘rta ta’limda barcha ma’lumot almashinuvi jarayonlarini maktabgacha va maktab ta’limi tizimini boshqarishning yagona dasturiy majmuasi orqali amalga oshirilishini hamda ushbu sohada elektron davlat xizmatlari ko‘lamini kengaytirish;

*(2-bandning to‘qqizinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)*

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining navbatlilik koeffitsiyentini optimal darajaga yetkazish, zamonaviy modellar bo‘yicha maktablarni qurish, rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash hamda zarur jihozlar bilan ta’minlash.

3. Xalq ta’limi vazirligi tomonidan xalqaro va mahalliy ekspertlar ishtirokida Milliy o‘quv dasturi yaratilganligi va 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab 1- va 2-sinflarda 252 nomdagi yangi zamonaviy darsliklar, o‘quvchi mashq daftarlari hamda pedagoglar uchun o‘quv qo‘llanmalar joriy qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Oldingi tahrirga qarang.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (X. Umarova):

*(3-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)*

Oldingi tahrirga qarang.

a) 2024-yil 1-sentabrga qadar Milliy o‘quv dasturining ta’lim jarayoniga to‘liq joriy etilishini, shu jumladan 2022-yil yakuniga qadar 3-, 6-, 7- va 10-sinflar uchun, 2025-yilgacha — qolgan sinflar uchun darsliklar, mashq daftarlari hamda o‘quv qo‘llanmalar yaratilishini ta’minlasin;

*(3-bandning “a” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)*

b) maxsus elektron tizimlar (S-testing, Onlinedu, Raqamli darsliklar va boshqalar) orqali:

2022-yil yakuniga qadar yangi avlod darsliklari uchun 10 ta mobil elektron resurs va 100 ta multimedia mahsulotlarini yaratsin;

2022-yil 1-sentabrga qadar 3-, 6-, 7- va 10-sinf o‘qituvchilarini Milliy o‘quv dasturi asosida ishlab chiqilgan qisqa muddatli malaka oshirish kurslarida o‘qitsin;

v) pedagog kadrlar hamda oʻquvchilarning bilim va koʻnikmalarini baholash natijalari boʻyicha aniqlangan boʻshliqlardan, shuningdek, ota-onalar, ekspertlar va boshqa shaxslarning takliflaridan kelib chiqib, Milliy oʻquv dasturini doimiy ravishda takomillashtirib borsin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

4. Davlat umumiy oʻrta taʼlim muassasalariga Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi bilan kelishgan holda oʻquv jarayoniga xalqaro tan olingan taʼlim dasturlarini joriy qilish, shu jumladan davlat taʼlim standartlari doirasida oʻquv dasturlariga oʻzgartirish kiritish hamda darsliklarni tanlashga (ona tili, adabiyot, tarix, tarbiya va huquq fanlaridan tashqari) ruxsat etilsin.

*(4-bandning birinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)*

Xalq taʼlimi vazirligi (B. Saidov):

bir oy muddatda davlat umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining oʻquv jarayoniga xalqaro tan olingan taʼlim dasturlarini joriy qilish tartibini tasdiqlasin;

ikki oy muddatda xalqaro tan olingan taʼlim dasturlari roʻyxatini shakllantirsin hamda oʻzining rasmiy veb-saytiga joylashtirsin;

umumiy oʻrta taʼlim muassasalariga ularning oʻquv jarayoniga xalqaro tan olingan taʼlim dasturlarini joriy qilishga koʻmaklashsin, shu jumladan taʼlim sohasida xizmat koʻrsatuvchi xorijiy tashkilotlar bilan muzokaralar olib borsin hamda dasturlarni sotib olish va amaliyotga tatbiq etish uchun zarur mablagʻlarni ajratsin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

5. Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligidan tashqari boshqa vazirlik va idoralarga umumiy oʻrta taʼlimning oʻquv-rejalari va dasturlariga oʻzgartirish kiritish va maktablarda yangi fan joriy qilishni nazarda tutuvchi qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish boʻyicha tashabbus bilan chiqish taqiqlansin.

*(5-bandning birinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)*

Vazirlar Mahkamasi vazirlik va idoralar tomonidan mazkur bandda nazarda tutilgan taqiqqa amal qilinishi ustidan qatʼiy nazorat oʻrnatsin.

6. Quyidagilar tashkil etilsin:

Xalq taʼlimi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlari negizida Pedagoglarni yangi metodikalarga oʻrgatish milliy markazlari (keyingi oʻrinlarda — Pedagogika markazlari);

A. Avloniy nomidagi xalq taʼlimi muammolarini oʻrganish va istiqbollarini belgilash ilmiy-tadqiqot instituti negizida A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga oʻrgatish milliy-tadqiqot instituti (keyingi oʻrinlarda — Milliy-tadqiqot instituti).

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti (keyingi oʻrinlarda — Toshkent davlat pedagogika universiteti) hamda uning huzuridagi taʼlim va ilmiy tashkilotlar Xalq taʼlimi vazirligi tasarrufiga oʻtkazilsin.

Toshkent davlat pedagogika universiteti pedagogika yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv dasturlarni ishlab chiqishda yetakchi oliy ta’lim muassasasi etib belgilansin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

7. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining pedagog kadrlarni kompetensiyalarga asoslangan va kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan metodikalar (keyingi o‘rinlarda — zamonaviy metodikalar) bo‘yicha o‘qitish amaliyotini joriy qilish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

*(7-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (X. Umarova) Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (I. Abduraxmonov) bilan birgalikda pedagog kadrlarni zamonaviy metodikalar asosida o‘qitish amaliyotini joriy qilish uchun:

*(7-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)*

a) pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish yo‘nalishida:

2022-yil 1-sentabrga qadar Pedagogika markazlariga aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilsin;

2022-yil 1-iyulga qadar Pedagogika markazlari huzurida xorijiy mutaxassislar, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim tashkilotlari hamda Pedagogika markazlarining malakali xodimlaridan iborat bo‘lgan trenerlar guruhlarini shakllantirsin;

2022-yil yakuniga qadar trenerlar guruhlari bilan birgalikda joylarga chiqqan holda kamida 20 foiz umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida pedagoglar uchun zamonaviy metodikalarga asoslangan sayyor o‘quv mashg‘ulot va seminar-treninglar o‘tkazilishini ta’minlasin;

pedagog kadrlarning malakasini oshirishga bevosita jalb qilingan trenerlarga ularning ish faoliyati natijasiga qarab, oylik ish haqiga 100 foizgacha miqdorda qo‘shimcha ustama haq to‘lab borsin;

2022-yil yakuniga qadar maktab o‘qituvchilari uchun “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasida pedagogik faoliyatdan ajralmagan holda amalga oshiriladigan qo‘shimcha individual malaka oshirish kurslarini joriy etsin;

b) ta’lim dasturlarini takomillashtirish yo‘nalishida:

zamonaviy metodikalarga asoslangan ta’lim dasturlari va darsliklarni xarid qilish hamda umumiy o‘rta ta’lim tizimiga joriy qilish choralarini ko‘rsin;

2022-yil 1-avgustga qadar malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda Toshkent davlat pedagogika universiteti hamda Pedagogika markazlarining o‘quv-rejalari va dasturlarini to‘liq qayta ko‘rib chiqsin hamda xalqaro talablar asosida takomillashtirsin;

2023-yil 1-sentabrga qadar Respublika ta’lim markazi hamda Toshkent davlat pedagogika universiteti bilan birgalikda ta’lim jarayonini Milliy o‘quv dasturi asosida

tashkil etishga qaratilgan metodikalarni ishlab chiqsin va ushbu metodikalarning umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlari, pedagogika yo‘nalishidagi professional va oliy ta’lim muassasalari hamda Pedagogika markazlarida joriy qilinishini ta’minlasin;

v) pedagog kadrlarni tayyorlash yo‘nalishida:

2022/2023 o‘quv yilidan boshlab Toshkent davlat pedagogika universitetining kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotgan 2 — 4-bosqich talabalari uchun haftalik o‘quv mashg‘ulotlari “4+2” tartibida, shu jumladan darslarning 4 kuni oliy ta’lim muassasasida, 2 kuni umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida amaliyot o‘tash tartibida olib borilishini ta’minlasin;

*Oldingi tahrirga qarang.*

Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligi huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi bilan hamkorlikda Toshkent davlat pedagogika universiteti talabalarining tanishuv va malakaviy amaliyotlarini, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bilan birga Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda ham tashkil etish choralarini ko‘rsin;

*(7-band “v” kichik bandining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)*

Toshkent davlat pedagogika universitetida o‘quv dasturlari o‘zaro yaqin bo‘lgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha asosiy va qo‘shimcha mutaxassislik (kvalifikatsiya) berish tartibini yo‘lga qo‘ysin;

Toshkent davlat pedagogika universiteti talabalarining ilmiy-tadqiqot va kasbiy ko‘nikmalarini oshirish maqsadida dars jarayonlariga soha mutaxassislari va olimlarni jalb etsin.

Moliya vazirligi (T. Ishmetov) 2022-yil yakuniga qadar maktablarda zamonaviy metodikalar asosida o‘qitish amaliyotini joriy qilish uchun Xalq ta’limi vazirligiga zarur mablag‘larni ajratsin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

8. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (X. Umarova):

*(8-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

2023-yil 1-oktabrga qadar ta’lim sohasida xizmat ko‘rsatuvchi vakolatli xalqaro tashkilotlarni (keyingi o‘rinlarda — vakolatli xalqaro tashkilotlar) jalb qilgan holda pedagog kadrlarning umumta’lim fanlari bo‘yicha bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash tizimini ishlab chiqsin va amaliyotga joriy qilsin;

*(8-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)*

2024-yil 1-yanvarga qadar pedagog kadrlarning umumta’lim fanlari bo‘yicha bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash tizimining xalqaro standartlar talablariga javob berishini sertifikatsiyadan o‘tkazsin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

9. Shunday tartib oʻrnatilsinki, unga muvofiq 2022-yil 1-sentabrdan boshlab Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy oʻrta ta’lim muassasalarida:

*(9-bandning birinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

a) oʻzi dars beradigan fani boʻyicha tegishli darajadagi sertifikatga ega boʻlgan pedagog kadrlarga har oylik qoʻshimcha ustama quyidagi tartibda toʻlanadi:

*(9-band “a” kichik bandining birinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)*

xalqaro tan olingan sertifikatga ega boʻlgan pedagog kadrlarga — ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida;

xalqaro standartlar talablariga javob beradigan milliy baholash tizimida olingan sertifikatga ega boʻlgan pedagog kadrlarga — ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida. Bunda, milliy baholash tizimining xalqaro standartlar talablariga javob berishi vakolatli xalqaro tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan boʻlishi lozim;

*Oldingi tahrirga qarang.*

mazkur bandning toʻrtinchi xatboshisida koʻrsatilgan talablarga muvofiq boʻlmagan Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining milliy baholash tizimida olingan sertifikatga ega boʻlgan pedagog kadrlarga — ularning tarif stavkasiga nisbatan 20 foiz miqdorida (chet tili boʻyicha sertifikatlar bundan mustasno);

*(9-band “a” kichik bandining toʻrtinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

b) mazkur bandning toʻrtinchi xatboshisida koʻrsatilgan talablarga muvofiq boʻlmagan Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligining milliy baholash tizimida chet tili boʻyicha olingan sertifikatga ega boʻlgan pedagog kadrlarga har oylik qoʻshimcha ustama:

*(9-band “b” kichik bandining birinchi xatboshisi Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)*

2025-yil 1-yanvarga qadar — ularning tarif stavkasiga nisbatan 50 foiz miqdorida;

2025-yil 1-yanvardan boshlab — ularning tarif stavkasiga nisbatan 20 foiz miqdorida toʻlanadi;

v) har oylik qoʻshimcha ustama sertifikat amal qilish muddati davomida, lekin uch yildan koʻp boʻlmagan vaqt mobaynida toʻlanadi;

g) umumta'lim fanlari bo'yicha bir nechta sertifikatga ega bo'lgan pedagog kadrlarga har oylik qo'shimcha ustama yuqoriroq ustama olish huquqini beruvchi sertifikat bo'yicha to'lanadi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi (X. Umarova) Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Sh. Kudbiyev) bilan kelishgan holda har yili 1-avgustga qadar quyidagilarni tasdiqlasin va o'zining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta'minlasin:

*(9-band "g" kichik bandining ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)*

milliy baholash tizimi muvofiq bo'lishi lozim bo'lgan xalqaro standartlar ro'yxatini;

ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi vakolatli xalqaro tashkilotlar ro'yxatini;

xalqaro tan olingan va milliy baholash tizimida berilgan sertifikatlar (ularning kombinatsiyasi) ro'yxatini hamda har oylik ustama olish uchun ularning eng kam darajasini.

*Oldingi tahrirga qarang.*

10. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi (M. Karimov) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-son qaroriga muvofiq chet tili fani o'qituvchilariga 30 va 15 foiz miqdorida ustama olish huquqini beradigan ma'lumotnomalar berish amaliyotini tugatsin.

*(10-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)*

Belgilansinki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-son qaroriga muvofiq chet tili fani bo'yicha ma'lumotnoma olgan o'qituvchilarning ustamalari, ushbu ma'lumotnomalar amal qilish muddati davomida saqlab qolinadi.

11. Xalq ta'limi vazirligi (B. Saidov) Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi (N. Xusanov) bilan birgalikda 2022-yil 1-dekabrga qadar maktab direktori lavozimiga nomzodlarning bilim va ko'nikmalarini baholash hamda baholash natijasi bo'yicha ularga menejerlik sertifikatini berish amaliyotini yo'lga qo'ysin.

Belgilab qo'yilsinki, 2023-yil 1-yanvardan boshlab:

maktab direktori lavozimiga nomzodlar menejerlik sertifikatini olish uchun Milliy-tadqiqot institutida maxsus pullik dasturlar asosida jamoada ishlash va ota-onalar bilan muloqot qilish, boshqaruv, moliyaviy hisob-kitoblarni amalga oshirish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ko'nikmalariga o'qitiladi;

o'qitish yakuni bo'yicha Milliy-tadqiqot instituti tomonidan maktab direktori lavozimiga nomzodlarning boshqaruv sohasiga oid bilim va ko'nikmalari baholanadi hamda natijasi bo'yicha menejerlik sertifikati beriladi.

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(11-bandning beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(11-bandning beshinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi PF-28-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.02.2024-y., 06/24/28/0099-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

12. Yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan pedagoglarni qo‘shimcha rag‘batlantirish va malakali xodimlar faoliyatini yanada qo‘llab-quvvatlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzurida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri jamg‘armasi tashkil etilsin.

*(12-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)*

Vazirlar Mahkamasi bir oy muddatda Xalq ta’limi vaziri jamg‘armasini tashkil etish bo‘yicha Hukumat qarorini qabul qilsin.

Moliya vazirligi (T. Ishmetov) 2022-yilda Xalq ta’limi vaziri jamg‘armasiga Davlat budjetidan 300 milliard so‘m mablag‘ ajratilishini ta’minlasin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

13. 2022-yil 1-sentabrdan boshlab Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari kutubxonalari va “Bolalar kutubxonalari” xodimlarining lavozim maoshi miqdori 1,2 baravarga oshirilsin.

*(13-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

14. Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Sh. Kudbiyev) mazkur Farmonda belgilangan tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash uchun tegishli mablag‘larni 2023-yildan boshlab Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutib borsin.

*(14-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)*

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

16. Xalq ta’limi vazirligi boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

17. Mazkur Farmonning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib xalq ta’limi vaziri B.O. Saidov hamda moliya vaziri T.A. Ishmetov belgilansin.

Farmon ijrosini har chorakda muhokama qilib borish, ijro uchun mas’ul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi A.A. Abduvaxitov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,
2022-yil 11-may,
PF-134-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoniga
1-ILOVA

*Oldingi tahrirga qarang.*

## 2022 — 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha MILLIY DASTUR

*(1-ilovaning nomi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)*

*Oldingi tahrirga qarang.*

| T/r | Chora-tadbirlar | Amalga oshirish mexanizmi | Bajarish muddati | Moliyalashtirish manbai | Ijro uchun mas’ullar |
|---|---|---|---|---|---|
| | | **I. Ilg‘or xorijiy tajriba asosida ta’lim sifatini oshirish** | | | |
| 1. | Ta’lim jarayoniga yangi Milliy o‘quv dasturini joriy etish. | 1. Milliy o‘quv dasturiga mos ravishda darsliklar, mashq daftarlari hamda pedagoglar uchun o‘quv qo‘llanmalarni yaratish rejasini tasdiqlash. | 2022-yil 1-sentabr | Ushbu maqsadlar uchun ajratilgan Davlat budjeti mablag‘lari va Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari | Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov)* |
| | | 2. Milliy o‘quv dasturi asosida darsliklar, mashq daftarlari hamda pedagoglar uchun o‘quv qo‘llanmalarni yaratish. | Tasdiqlangan rejaga asosan | | |
| | | 3. Pedagog kadrlar hamda o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash natijalari bo‘yicha aniqlangan bo‘shliqlardan, shuningdek, ota-onalar, ekspertlar va boshqa shaxslarning takliflaridan kelib chiqib, Milliy o‘quv | Doimiy | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | dasturini takomillashtirish. | | | |
| 2. | Yangi Milliy o‘quv dasturi asosida pedagog kadrlarning malakasini oshirish. | 1. Milliy o‘quv dasturi asosida pedagog kadrlar uchun maxsus kontentlarni yaratish va “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasiga joylashtirish. | 2022-yil 1-iyul | Ushbu maqsadlar uchun ajratilgan Davlat budjeti mablag‘lari | Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov),* Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi *(Toshkulov)* |
| | | 2. “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasi orqali bosqichma-bosqich o‘qituvchilar malakasini oshirish. | 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab | | |
| 3. | Yangi avlod darsliklarini yaratish bo‘yicha mualliflar maktabini shakllantirish, ular uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish hamda mazkur sohaga xorijiy ekspertlarni jalb qilish. | 1. Darsliklarni yaratish ko‘nikmasiga ega yosh muallif va mutaxassislar reyestrini shakllantirish. | 2022-yil 1-avgust | Ushbu maqsadlar uchun ajratilgan Davlat budjeti mablag‘lari, Xalq ta’limi vazirligining budjetdan tashqari mablag‘lari, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar | Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov)* |
| | | 2. Yosh muallif va mutaxassislarni xalqaro nashriyot va noshirlik faoliyatini yurituvchi tashkilotlarga malaka oshirish va stajirovkaga yuborish. | 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab | | |
| | | 3. O‘quv dasturi, o‘quv-metodik majmua va darsliklarni yaratish hamda yangilash uchun jalb qilinadigan xorijiy ekspertlar bilan muzokaralar olib borish va ularning ro‘yxatini shakllantirish. | 2022-yil 1-noyabr | | |
| | | 4. Xorijiy ekspertlarni o‘quv dasturi, o‘quv-metodik majmua va darsliklarni yaratish hamda yangilash uchun jalb qilish. | 2023-yil 1-yanvardan boshlab | | |
| 4. | Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi faoliyatini takomillashtirish. | 1. Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha Hukumat | 2022-yil 1-avgust | - | Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov),* Moliya vazirligi *(Ishmetov)* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | qarori loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiri�ish.<br>Qaror loyihasida Jamg‘armaning asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari, mablag‘larni shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini belgilash. | | | |
| 5. | Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari darsliklari va o‘quv-metodik majmualarining erkin savdosini tashkil etish. | 1. Xalq ta’limi tizimida foydalaniladigan darslik hamda o‘quv-metodik majmualarni chop etish va ularning erkin savdosini tashkil etish bo‘yicha tanlov o‘tkazish va g‘oliblarni aniqlash. | 2022-yil 1-sentabr | Tashabbuskor korxona va nashriyotlarning mablag‘lari | Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov)*,<br>davlat va nodavlat nashriyot uylari |
| | | 2. Tanlov g‘oliblari tomonidan xalq ta’limi tizimida foydalaniladigan darsliklar va o‘quv-metodik majmualarning erkin savdosini tashkil etish. | Takliflardan kelib chiqib | | |
| 6. | O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi va faoliyatida qo‘llagan zamonaviy metodikalarni ommalashtirish. | 1. Ilg‘or tajribaga ega bo‘lgan va faoliyatida zamonaviy metodikalarni qo‘llaydigan o‘qituvchilarni aniqlash tartibini ishlab chiqish va xalq ta’limi vaziri buyrug‘i bilan tasdiqlash. | 2022-yil 1-sentabr | Xalq ta’limi vazirligining budjetdan tashqari mablag‘lari | Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov)* |
| | | 2. Ilg‘or tajribaga ega bo‘lgan va faoliyatida zamonaviy metodikalarni qo‘llaydigan o‘qituvchilar ro‘yxatini shakllantirish. | 2023-yil 1-oktabr | | |
| | | 3. O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi va zamonaviy metodikalarini ommalashtirish. | Doimiy | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 7. | Xalqaro va mahalliy mutaxassislarni jalb etgan holda zamonaviy metodikalar asosida o‘qituvchilar malakasini oshirish. | 1. Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi malaka oshirish muassasalariga chet tili, aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilish. | 2022-yil 1-sentabr | Ushbu maqsadlar uchun ajratilgan Davlat budjeti mablag‘lari | Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov)*,<br>Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi *(Toshkulov)* |
| | | 2. Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi malaka oshirish muassasalari, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim tashkilotlarining malakali xodimlari hamda xorijiy mutaxassislardan iborat bo‘lgan trenerlar guruhlarini shakllantirish. | 2022-yil 1-iyul | | |
| | | 3. Trenerlar guruhlari tomonidan joylarga chiqqan holda pedagog kadrlarning bilim va mahoratini baholash hamda baholash natijasi bo‘yicha aniqlangan bo‘shliqlarni bartaraf etishga qaratilgan hamda ilg‘or metodikalarga asoslangan sayyor o‘quv mashg‘ulot va seminar-treninglar o‘tkazilishini ta’minlash. | 2022-yil 30-dekabr | | |
| | | 4. Trenerlar guruhlari a’zolarining oylik ish haqiga ustama to‘lash bo‘yicha qo‘shma qaror qabul qilish. | 2022-yil 1-iyul | | |
| | | 5. “Uzluksiz kasbiy ta’lim” maxsus elektron platformasi orqali o‘qituvchilar uchun qo‘shimcha individual malaka oshirish kurslarini joriy etish. | 2023-yil 1-yanvardan boshlab | | |
| 8. | Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari | 1. Yosh mutaxassislar (5 | 2022-yil 1-avgust | - | Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov)*, |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | o'qituvchilarining pedagogik ish rejasi va yuklamalarini qayta ko'rib chiqish. | yilgacha pedagogik stajga ega bo'lgan) zimmasiga darsga tayyorgarlik ko'rish jarayonida maxsus pedagogik xarita va dars ishlanmalarini tayyorlash majburiyatini yuklash yuzasidan pedagogik jamoatchilik fikrini o'rganish (so'rov o'tkazish). | | | Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi *(Xusanov)* |
| | | 2. So'rov natijalaridan kelib chiqib, umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilarining pedagogik ish rejasi va yuklamalariga o'zgartirish kiritish masalasini ko'rib chiqish. | 2022-yil 1-sentabr | | |
| **II. Jamiyatda o'qituvchi kasbi nufuzini oshirish, ular uchun qulay ijtimoiy sharoitlar yaratish va mehnatini munosib rag'batlantirish** | | | | | |
| 9. | Pedagog kadrlar faoliyatini keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib qilish. | 1. Ilg'or o'qituvchilar faoliyatini yoritish bo'yicha media-reja ishlab chiqish. | 2022-yil 1-iyul | - | Xalq ta'limi vazirligi *(Saidov),* O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi *(Xadjayev),* Kinematografiya agentligi *(Abduxalikov),* Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi *(Xodjayev)* |
| | | 2. Media-reja asosida ko'rsatuv, qisqa metrajli roliklar va filmlar yaratish va ularni ommaviy axborot vositalari orqali namoyish etish. | 2022/2023 o'quv yilidan boshlab | | |
| | | 3. Respublika ta'lim markazi takliflari asosida "Zamonamiz qahramoni" rukni ostida turkum media mahsulotlar yaratish va ularni ommalashtirish. | 2022-yil 1-noyabr | Xalq ta'limi sohasida islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar | |
| | | 4. Ijtimoiy video mahsulotlarni tayyorlash va elektron ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritish. | Doimiy | | |
| 10. | Jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarning | 1. Mavjud normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish hamda jinoiy javobgarlikka | 2022-yil 1-avgust | - | Xalq ta'limi vazirligi *(Saidov),* Adliya vazirligi *(Davletov),* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | umumiy o‘rta ta’lim tizimida rahbarlik lavozimiga tayinlanishini cheklash. | tortilgan shaxslarning umumiy o‘rta ta’lim tizimida rahbarlik lavozimida mehnat faoliyatini amalga oshirishini cheklash bo‘yicha xorij tajribasini o‘rganish. | | | Bosh prokuratura *(Yo‘ldoshev)*, Oliy sud *(Kamilov)*, Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi *(Xasanov)* |
| | | 2. Jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslarning xalq ta’limi tizimida rahbarlik lavozimiga tayinlanishini cheklash bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish kiritish.<br>Bunda, shu jumladan quyidagi shaxslarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga rahbarlik lavozimiga tayinlanishini taqiqlashni nazarda tutish:<br>ilgari o‘zining aybli harakatlari sababli mehnat shartnomasi tugatilgan shaxslar;<br>qo‘llanilgan jazo chorasidan, sudlanganlik holati tugallanganligidan yoki olib tashlanganligidan hamda o‘ziga nisbatan amnistiya yoki afv etish akti qo‘llanilganligidan qat’i nazar, qasddan sodir etgan jinoyati uchun ilgari hukm qilingan shaxslar;<br>jinoyat ishlari aybdorligi to‘g‘risidagi masala hal etilmagan holda tugatilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslar. | 2022-yil 1-dekabr | | |
| 11. | Bolaga nisbatan g‘ayriqonuniy ishlarni amalga oshirib, | 1. Mavjud normativ-huquqiy hujjatlar va xorij tajribasini tahlil qilish. | 2022-yil 1-dekabr | - | Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov)*, Adliya vazirligi *(Davletov)*, |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | javobgarlikka tortilgan shaxslarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida mehnat faoliyatini olib borishini taqiqlash. | 2. Bolaga nisbatan g‘ayriqonuniy ishlarni amalga oshirib, javobgarlikka tortilgan shaxslarning umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida mehnat faoliyatini olib borishini taqiqlash bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish. | 2023-yil 1-yanvar | | Bosh prokuratura *(Yo‘ldoshev)*, Oliy sud *(Kamilov)*, Davlat xizmatlarini rivojlantirish agentligi *(Xasanov)* |
| 12. | Xalqaro tan olingan va milliy baholash tizimida berilgan sertifikatlar (ularning kombinatsiyasi) ro‘yxatini tasdiqlash. | 1. Xalqaro tan olingan va milliy baholash tizimida berilgan sertifikatlar (ularning kombinatsiyasi) ro‘yxatini hamda har oylik ustama olish uchun ularning eng kam darajasini tasdiqlash bo‘yicha qo‘shma qaror qabul qilish.<br>2. Tasdiqlangan qo‘shma qarorni rasmiy veb-saytga joylashtirish. | Har yili 1-avgustgacha | - | Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov)*, Moliya vazirligi *(Ishmetov)* |
| 13. | Xalqaro standartlar talablariga javob beradigan milliy baholash tizimida olingan sertifikatga ega bo‘lgan pedagog kadrlarga qo‘shimcha ustamalar to‘lash tizimini joriy etish. | 1. Ta’lim sohasida xizmat ko‘rsatuvchi vakolatli xalqaro tashkilotlarni jalb qilgan holda pedagog kadrlarning umumta’lim fanlari bo‘yicha bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash tizimini ishlab chiqish va ichki normativ hujjat bilan tasdiqlash. | 2023-yil 1-avgust | Xalq ta’limi vaziri jamg‘armasi | Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov)*, Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi *(Tashkenbayev)*, Moliya vazirligi *(Ishmetov)* |
| | | 2. Maktab o‘qituvchilarining umumta’lim fanlari bo‘yicha bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash tizimining xalqaro standartlar talablariga javob berishini sertifikatsiyadan o‘tkazish. | 2024-yil 1-yanvar | | |
| | | 3. Xalqaro standartlar talablariga javob beradigan milliy | 2024-yil 1-sentabr | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | baholash tizimlarida olingan tegishli darajadagi sertifikatga ega bo'lgan pedagog kadrlarga to'lanadigan ustama haq miqdorini oshirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish. | | | |
| 14. | Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash ishlarini takomillashtirish. | 1. Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash ishlarini takomillashtirish, shu jumladan quyidagilar bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish:<br>umumiy o'rta ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik (keyingi o'rinlarda — ChQBT) fanidan dars berayotgan hamda oliy ta'lim muassasalarining harbiy ta'lim fakultetini tugatgan o'qituvchilarning harbiy unvonlarini oshirish;<br>umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida ChQBTni tashkillashtirishning yagona tartibini belgilash;<br>ta'lim muassasalarining bitiruvchi sinf va kurslarida tahsil olayotgan o'quvchilar bilan harbiy poligonlarda amaliy otish mashg'ulotlarini o'tkazishning aniq mexanizmini belgilash;<br>ChQBT fani doirasida o'quv qurol-aslahalardan foydalanishni o'rgatish; | 2022-yil 1-iyul | - | Mudofaa vazirligi *(Qurbonov),*<br>Milliy gvardiya *(Djurayev),*<br>Ichki ishlar vazirligi *(Bobojonov),*<br>Xalq ta'limi vazirligi *(Saidov),*<br>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi *(Toshkulov),*<br>Moliya vazirligi *(Ishmetov)* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | ChQBTga oid hisobot hujjatlarining yagona shakllarini joriy etish;<br>ChQBT fani o‘qituvchilarini rag‘batlantirish mexanizmini belgilash;<br>o‘quvchilarni harbiy qismlarga va harbiy ta’lim muassasalariga ekskursiyaga yuborish;<br>harbiy texnikalar ko‘rgazmalarini tashkil etish. | | | |
| **III. Iqtidorli yoshlar bilan ishlash, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va ularni kasb-hunarga yo‘naltirish tizimini takomillashtirish** | | | | | |
| 15. | Xalqaro fan olimpiadalari bo‘yicha milliy terma jamoalarning faoliyatini yanada rivojlantirish va natijadorligini oshirish. | 1. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini xalqaro fan olimpiadalariga tayyorlash jarayonlariga malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilish. | 2022-yil may — avgust | Ushbu maqsadlar uchun ajratilgan Davlat budjeti mablag‘lari, Xalq ta’limi vazirligining budjetdan tashqari mablag‘lari, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar | Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov),* manfaatdor vazirlik va idoralar |
| | | 2. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini olimpiadalarga tayyorlash uchun maxsus metodik qo‘llanmalar va topshiriqlar majmualarini yaratish. | 2022-yil 1-oktabr | | |
| | | 3. Xorijiy mamlakatlarning terma jamoalari bilan hamkorlikda qo‘shma yig‘inlarni tashkil etish. | 2023-yil 1-iyul | | |
| | | 4. Milliy terma jamoa a’zolari va kelgusi yil uchun rezervga kiritilgan o‘quvchilarni mavsumiy o‘quv yig‘inlari doirasida xalqaro olimpiadalar metodikasi asosida markazlashgan holda tayyorlab borish amaliyotini joriy qilish. | 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab | | |
| 16. | Ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan | 1. Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi | 2022-yil 1-oktabr | - | Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov),* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktablari faoliyatini takomillashtirish. | ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktablarining kadrlar salohiyati, ta’lim sifati ko‘rsatkichlari va moddiy-texnika bazasini xatlovdan o‘tkazish. | | | Davlat test markazi *(Karimov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| | | 2. Kadrlar salohiyati va moddiy-texnika bazasi yetarli bo‘lgan hamda ta’lim samaradorligi bo‘yicha yuqori natijalarga erishayotgan ayrim fanlar chuqur o‘qitiladigan sinflari mavjud umumiy o‘rta ta’lim maktablari ro‘yxatini shakllantirish va ularga iqtidorli o‘quvchilarni qabul qilish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga taklif kiritish. | 2022-yil 1-noyabr | | |
| 17. | O‘quvchilar o‘rtasida kitobxonlikni yanada ommalashtirish. | 1. Zamonaviy ko‘nikmalar, liderlik, moliya, axborot texnologiyalari, dasturlash, marketing, menejment, motivatsiya, ijtimoiy media marketing (SMM), muvaffaqiyatli shaxslar biografiyasi va psixologiya bo‘yicha adabiyotlar ro‘yxatini shakllantirish va ularni umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun xarid qilish. | 2023-yil 1-avgust | Ushbu maqsadlar uchun ajratilgan Davlat budjeti mablag‘lari | Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov)*, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi *(Xodjayev)*, Yoshlar ishlari agentligi *(Sa’dullayev)* |
| | | 2. Ushbu adabiyotlar asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘rtasida viktorinalar tashkil etish. | 2023-yil 1-oktabr | | |
| 18. | Ijodkor va iqtidorli o‘quvchilarni | 1. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari kesimida ijod bilan shug‘ullanadigan | Har yangi o‘quv yilida | Ijrochilar mablag‘lari | Yozuvchilar uyushmasi *(Sayidov)*, Xalq ta’limi vazirligi |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | qo‘llab-quvvatlash tizimini joriy etish. | o‘quvchilar ro‘yxatini shakllantirish.<br>2. Madaniyat muassasalariga o‘quvchilarning ijodiy ishlarini chop etishni tavsiya qilish.<br>3. O‘quvchilarga ularning ijodiy ishlarini chop etishga ko‘maklashish. | | | *(Saidov)* |
| 19. | “Barkamol avlod” bolalar maktablarida talab yuqori bo‘lgan to‘garaklarni yo‘lga qo‘yishda xususiy sektor ulushini oshirish. | 1. Tajriba-sinov tariqasida viloyatlarda bittadan “Barkamol avlod” bolalar maktablarida quyidagi mexanizm asosida o‘quvchilarni maktabdan tashqari mashg‘ulotlarga jalb qilish tartibini joriy etish:<br>o‘z kasbi ustalari bo‘lgan shaxslarga “Barkamol avlod” bolalar maktablaridagi bo‘sh xonalar va maydonlarni to‘garak tashkil etish uchun bepul asosda taqdim etish;<br>ota-onalar badali miqdorini to‘garak rahbari tomonidan erkin belgilash;<br>“Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimida ro‘yxatga olingan oilalar farzandlarini (to‘garaklarga qatnashadigan o‘quvchilar umumiy sonining 20 foizidan ko‘p bo‘lmagan qismini) bepul o‘qitish;<br>to‘garaklarni tashkil etish bilan bog‘liq kommunal xarajatlarni to‘liq Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan to‘lash. | 2022/2023 o‘quv yilidan boshlab | Ushbu maqsadlar uchun ajratilgan Davlat budjeti mablag‘lari, Ijrochilar mablag‘lari | Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov)*, Moliya vazirligi *(Ishmetov)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Bunda: "Barkamol avlod" bolalar maktabi direktori tomonidan tadbirkorlar uchun to'garaklar faoliyatini boshlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi; tadbirkorlik subyekti berilgan to'garak xonasini jihozlash va ta'mirlash ishlarini o'z zimmasiga oladi. | | | |
| 20. | "Barkamol avlod" bolalar maktablarida "Zamonaviy kasblar" laboratoriyasini tashkil etish. | 1. Har bir hududda barcha sharoitlarga ega bo'lgan bittadan "Barkamol avlod" bolalar maktablarini aniqlash. | 2023-yil 1-mart | Ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mahalliy budjet mablag'lari | Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi *(Xusanov)*, Moliya vazirligi *(Ishmetov)*, Xalq ta'limi vazirligi *(Saidov)* |
| | | 2. "Zamonaviy kasblar" laboratoriyasini tashkil etish uchun zarur bo'lgan uskunalar ro'yxatini shakllantirish. | 2023-yil 1-aprel | | |
| | | 3. Respublika bo'yicha 14 ta "Barkamol avlod" bolalar maktablarida "Zamonaviy kasblar" laboratoriyasini tashkil etish va to'garak rahbarlarini o'qitish. | 2023-yil 1-sentabr | | |
| 21. | O'zbekiston "Yoshlik" jismoniy tarbiya va sport jamiyati faoliyatini takomillashtirish. | 1. O'zbekiston "Yoshlik" jismoniy tarbiya va sport jamiyati faoliyatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash. Chora-tadbirlar dasturida quyidagilarni nazarda tutish: jamiyatga a'zo bo'lish va badal to'lovini amalga oshirishni raqamlashtirish; umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jamiyatga a'zolik guvohnomalarini | 2022-yil 1-noyabr | - | Xalq ta'limi vazirligi *(Saidov)*, Sportni rivojlantirish vazirligi *(Ikramov)*, Moliya vazirligi *(Ishmetov)*, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | tantanali ravishda topshirish marosimlarini o‘tkazish;<br>sportning kamida 10 ta turidan Xalq ta’limi vazirligi terma jamoasi va zaxirasini shakllantirish, ularning turli xalqaro sport tadbirlarida ishtirokini ta’minlash. | | | |
| | | 2. Chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalarni o‘z muddatlarida amalga oshirish. | Reja-dastur asosida | | |
| 22. | O‘quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlarini aniqlash bo‘yicha yagona elektron platforma yaratish hamda har bir 5 — 11-sinf o‘quvchisi uchun elektron �Ish daftari”ni joriy etish. | 1. Xalq ta’limi tizimida o‘quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlarini aniqlash bo‘yicha yagona elektron platformani yaratish.<br>Platforma yordamida:<br>o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash bo‘yicha diagnostik testlar o‘tkazish;<br>o‘quvchilarga respublikadagi mavjud professional ta’lim muassasalari hamda ulardagi mavjud yo‘nalishlar to‘g‘risida ma’lumotlar berish. | 2022-yil 1-sentabr | Xalq ta’limi vazirligining budjetdan tashqari mablag‘lari | Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov)*,<br>Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi *(Shermatov)*,<br>Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi *(Toshkulov)*,<br>Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi *(Xusanov)* |
| | | 2. Ekspertlar guruhini shakllantirish (zarur hollarda chet ellik ekspertlarni jalb etish) orqali o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish, ularning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish, kelajakda o‘z kasbini ongli va mustaqil tanlashlariga ko‘maklashuvchi elektron “Ishchi daftari”ni ishlab chiqish. | 2022-yil 1-oktabr | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 3. Har bir 5 — 11-sinf oʻquvchisi uchun elektron shaxsiy kabinet yaratgan holda “Ish daftari”ni joriy etish. | 2023-yil 1-fevral | | |
| 23. | Maktab oʻquvchilarini professional ta’lim muassasalariga jalb etish boʻyicha targʻibot-tashviqot ishlarini olib borish. | 1. Oʻquvchilarda kasbga boʻlgan qiziqishni yanada oshirish maqsadida “Kasb va yoshlar” ochiq muloqot oyligini tashkil etish va uning doirasida:<br>yirik korxona, tashkilot va ta’lim muassasalarini jalb etish;<br>mehnat yarmarkalarini tashkil etish;<br>oʻz faoliyati davomida yuqori natijalarga erishgan kasb egalari bilan uchrashuvlar tashkil etish.<br>2. Tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish. | Har yili aprel-may oylarida | - | Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi *(Xusanov),* Yoshlar ishlari agentligi *(Sa’dullayev),* Oliy va oʻrta maxsus ta’lim vazirligi *(Toshkulov),* Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov),* Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| **IV. Alohida ta’lim ehtiyojlari boʻlgan bolalar uchun ta’lim tizimini takomillashtirish va inklyuziv ta’lim jarayonlarini kengaytirish** | | | | | |
| 24. | Alohida ta’lim ehtiyojlari boʻlgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning pedagog kadrlari va mutaxassislari salohiyatini oshirish. | 1. Alohida ta’lim ehtiyojlari boʻlgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning pedagog kadrlari va mutaxassislari malakasini oshirish tizimini yaratish. | 2022/2023 oʻquv yilidan boshlab | - | Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov),* Oliy va oʻrta maxsus ta’lim vazirligi *(Toshkulov)* |
| | | 2. Pedagoglar uchun “Alohida ta’lim ehtiyojlari boʻlgan bolalar bilan ishlash” mavzusida seminar-treninglarni muntazam tashkil etish. | Doimiy | | |
| 25. | Alohida ta’lim ehtiyojlari boʻlgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish | 1. Tegishli yoʻnalishlar boʻyicha alohida ta’limga ehtiyoji boʻlgan bolalarning ota- | 2022-yil 1-dekabr | Ushbu maqsadlar uchun ajratilgan Davlat budjeti mablagʻlari, | Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov),* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | masalalari bo‘yicha ota-onalar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish. | onalari uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish. | | Xalq ta’limi vazirligining budjetdan tashqari mablag‘lari, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar | Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi *(Xodjayev)* |
| | | 2. Metodik tavsiyalarni chop etish va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ib qilish. | Doimiy | | |
| | | 3. Tavsiyalarni alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning ota-onalariga yetkazish. | Doimiy | | |
| 26. | Brayl yozuvidagi bosma nashr (kitob)larni chop etish bozorini rivojlantirish. | 1. Brayl yozuvidagi kitob (badiiy adabiyot, darslik, o‘quv qo‘llanma)larni tayyorlash va chop etish bilan bog‘liq barcha uskuna va jihozlar, Brayl shriftidan foydalanish uchun mo‘ljallangan qog‘oz mahsulotlarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda bojxona to‘lovlaridan ozod etish hamda Brayl yozuvidagi kitob (badiiy adabiyot, darslik, o‘quv qo‘llanma)larni chop etish bilan shug‘ullanadigan nashriyotlarga soliq imtiyozlarini taqdim etish masalasi bo‘yicha tegishli takliflarni ishlab chiqish uchun ishchi guruh shakllantirish. | 2022-yil 1-iyul | - | Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov),* Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi *(Xodjayev)* |
| | | 2. Tegishli takliflarni ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2022-yil 1-noyabr | | |
| | | 3. Topshiriqdan kelib chiqib, zarur hollarda me’yoriy-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va Vazirlar Mahkamasiga kiritish. | 2023-yil 1-fevral | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 27. | Respublika o‘g‘il bolalar hamda qiz bolalar o‘quv-tarbiya muassasalarida tarbiyaviy-axloqiy ishlarni takomillashtirish. | 1. Respublika o‘g‘il bolalar hamda qiz bolalar o‘quv-tarbiya muass�salarida tarbiyalanayotgan o‘quvchilarda mehnat ko‘nikmalari va mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, ularni kasbga yo‘naltirish va bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish bo‘yicha qo‘shma chora-tadbirni qabul qilish.<br>Bunda, quyidagilarni nazarda tutish:<br>9 — 11-sinf bitiruvchilarini o‘rta maxsus, professional va oliy ta’lim muassasalari, “Temurbeklar maktabi”, Ichki ishlar vazirligi akademiyasi va Jamoat xavfsizligi universitetiga o‘qishga kirishga hamda muddatli harbiy xizmatni o‘tashga yo‘naltirish;<br>professional yoki oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirmagan 11-sinf bitiruvchilarining tizimdagi tashkilotlarga (Qo‘riqlash xizmati, Jamoat tartibini saqlash, kinologiya va boshqalar) ishga joylashishiga ko‘maklashish;<br>kasb-hunarni egallash istagida bo‘lgan 9 — 11-sinf bitiruvchilarni “Ishga marhamat” monomarkazlari, kasb-hunarga o‘qitish markazlari va mahalla aholisini kasb-hunarga | 2022-yil 1-oktabr | | Milliy gvardiya *(Djurayev)*,<br>Ichki ishlar vazirligi *(Bobojonov)*,<br>Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov)* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | o‘qitish maskanlariga yo‘naltirish. | | | |
| **V. Ta’lim tizimini raqamlashtirish** | | | | | |
| 28. | Ta’limni raqamlashtirish bo‘yicha axborot tizimlari hamda elektron ta’lim resurslarini (kontent) yaratish. | 1. Ta’limga oid o‘yinlar orqali o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida interaktiv virtual ta’lim platformalarini (SmartLand, Edumarket va boshqalar) kontent bilan boyitish ishlarini tashkil etish. | Doimiy | Xalq ta’limi vazirligining budjetdan tashqari mablag‘lari, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar | Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov),* Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi *(Shermatov)* |
| | | 2. Umum�y o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun ilmiy-ommabop qisqa metrajli animatsion video roliklarni (Edukids) tayyorlash. | Doimiy | | |
| | | 3. O‘quvchi-yoshlarga o‘zbek tilini o‘rgatishga qaratilgan platforma va mobil ilovalar ishlab chiqish. Bunda:<br>o‘zbek tilini xalqaro standartlar bo‘yicha o‘qitish metodikasini ishlab chiqish;<br>o‘zbek tilini yozish, o‘qish, eshitish va gapirish yo‘nalishlari bo‘yicha o‘rgatishga mo‘ljallangan mobil ilova ishlab chiqish hamda uni doimiy ravishda kontent va test savollari bilan boyitish. | 2023-yil 1-mart | | |
| 29. | O‘quvchilarni “Bir million dasturchi” loyihasiga keng jalb qilish etish orqali ularni zamonaviy kasblarga yo‘naltirish. | 1. Informatika va axborot texnologiyalari fani o‘qituvchilarini “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida trener sifatida tayyorlash. | 2022-yil 1-dekabr | Xalq ta’limi vazirligining budjetdan tashqari mablag‘lari, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar | Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov),* Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi *(Shermatov)* |
| | | 2. Trenerlar yordamida o‘quvchilarni loyihaga keng jalb etish. | Doimiy | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 3. Munosib faoliyat olib borgan o‘qituvchilarni rag‘batlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish. | Doimiy | | |
| 30. | Umumiy o‘rta ta’lim m�assasalari hududining xavfsizligini ta’minlash, o‘quvchilar davomatini doimiy ravishda monitoring qilish maqsadida “Xavfsiz maktab” tizimini joriy qilish. | 1. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga “Xavfsiz maktab” loyihasi doirasida nazorat kameralari va biometrik identifikatsiyatizimlarini o‘rnatish bilan bog‘liq moliyalashtirish manbalarini aniqlash. | 2022-yil 1-avgust | Ushbu maqsadlar uchun ajratilgan Davlat budjeti mablag‘lari, Xalq ta’limi vazirligining budjetdan tashqari mablag‘lari, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov),* Ichki ishlar vazirligi *(Bobojonov),* Milliy gvardiya *(Djurayev),* Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi *(Shermat?v)* |
| | | 2. “Xavfsiz maktab” loyihasini kamida 130 ta umumiy o‘rta ta’lim muassasasida joriy etish. | 2024-yil 1-yanvar | | |
| | | 3. “Xavfsiz maktab” loyihasini bosqichma-bosqich barcha umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida joriy etish. | 2025-yil 1-sentabr | | |
| 31. | Xalq ta’limi tizimida Yagona boshqaruv dasturiy majmuasini (keyingi o‘rinlarda — Yagona dasturiy majmua) bosqichma-bosqich joriy etish. | 1. Yagona dasturiy majmuani ishga tushirish. | 2023-yil 1-oktabr | - | Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov)* |
| | | 2. Manfaatdor vazirlik va idoralarning axborot tizimlari va ma’lumotlar bazalarida shakllangan quyidagi ma’lumotlarni real vaqt rejimida “Elektron hukumat” tizimining idoralararo integratsiya platformasi orqali doimiy ravishda Yagona dasturiy majmuaga taqdim etish: | 2022-yil 1-dekabr | | |
| | | 2.1. o‘quvchilarning tug‘ilganligi haqidagi ma’lumotlar; | | | Adliya vazirligi *(Davletov)* |
| | | 2.2. o‘qituvchi va xodimlarning mehnat faoliyati haqidagi ma’lumotlar; | | | Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi *(Xusanov)* |
| | | 2.3. oliy va professional ta’lim muassasalarida | | | Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi *(Toshkulov)* |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | o‘qiganlik haqidagi ma’lumotlar; | | | |
| | | 2.4. o‘qituvchilarga berilgan malaka toifa sertifikatlari haqidagi ma’lumotlar; | | | Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi *(Tashkenbayev)* |
| | | 2.5. o‘qituvchilarga chet tili fani bo‘yicha berilgan sertifikatlar haqidagi ma’lumotlar. | | | Davlat test markazi *(Karimov)* |
| | | 3. Bosqichma-bosqich ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni hisoblash modulini ishga tushirish va uni Moliya vazirligi axborot tizimlari bilan integratsiya qilish. | 2022-yil 1-avgust | | Moliya vazirligi *(Ishmetov),*<br>Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov)* |
| | | 4. O‘qituvchilar shaxsiy kabineti modulini ishlab chiqish va unda:<br>oliy va professional ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlarini;<br>malaka toifalarini;<br>xalqaro tan olingan va milliy sertifikatlarini;<br>biriktirilgan sinflar va dars soatlarini;<br>oylik ish haqi va boshqa ma’lumotlarni ko‘rish imkonini yaratish. | 2022-yil 1-sentabr | | Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov)* |
| 32. | Xalq ta’limi sohasida davlat �izmatlarini ko‘rsatish tarmog‘ini kengaytirish. | 1. Umumiy o‘rta ta’lim olganlik to‘g‘risidagi hujjatlar dublikatini berish bo‘yicha davlat xizmatlarini joriy etish. | 2022-yil 1-iyul | - | Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov),*<br>Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi *(Shermatov),*<br>Adliya vazirligi *(Davletov),*<br>Moliya vazirligi *(Ishmetov)* |
| | | 2. Bolalarni davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish hamda o‘quvchilarni bir umumiy o‘rta ta’lim muassasasidan boshqasiga o‘tkazish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘lamini kengaytirish. | 2022-yil 1-avgust | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 3. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar farzandlarini O‘zbekiston Respublikasining umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha davlat xizmatini joriy etish. | 2022-yil 1-noyabr | | |
| | | 4. Eksternat tartibida imtihonlar olish bo‘yicha davlat xizmatini joriy etish. | 2023-yil 1-fevral | | |
| 33. | Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilari uchun “Elektron shahodatnoma” axborot tizimini joriy etish. | 1. “Elektron shahodatnoma” axborot tizimining texnik topshiriqlarini ishlab chiqish va tasdiqlash. | 2022-yil 1-sentabr | - | Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov)*, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi *(Shermatov)* |
| | | 2. “Elektron shahodatnoma” axborot tizimini yaratish. | 2022-yil 1-noyabr | | |
| | | 3. “Elektron shahodatnoma” axborot tizimini tajriba-sinovdan o‘tkazish. | 2023-yil 1-fevral | | |
| | | 4. “Elektron shahodatnoma” axborot tizimini barcha umumiy o‘rta ta’lim muassasalari faoliyatida joriy etish. | 2023-yil 1-may | | |
| **VI. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va �larning infratuzilmasini yaxshilash** | | | | | |
| 34. | Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini birlamchi sport anjomlari bilan ta’minlash. | 1. Har yili umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini birlamchi sport anjomlari bilan ta’minlash va jihozlashning manzilli dasturini ishlab chiqish.<br>2. Manzilli dasturga asosan talab etiladigan mablag‘larni ajratish, sport anjomlari xarid qilish va umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga yetkazish. | 2023-yildan boshlab, har yili | Davlat budjeti mablag‘lari | Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi *(Umarova)*, Yoshlar siyosati va sport vazirligi *(Ikramov)*, Iqtisodiyot va moliya vazirligi *(Kudbiyev)*, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari |
| 35. | Umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi chaqiruvga qadar boshlang‘ich | 1. Mavjud chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani xonalari va o‘quv | 2022-yil 1-iyun | Mahalliy budjet mablag‘lari | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | tayyorgarlik fani xonalarining moddiy-texnika bazasini kuchaytirish va o‘quv maydonlari holatini yaxshilash. | maydonlarini xatlovdan o‘tkazish. | | | Mudofaa vazirligi *(Qurbonov),* Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov)* |
| | | 2. O‘tkazilgan xatlovlar natijasida aniqlangan moddiy-texnika bazasi va holati yaxshi bo‘lmagan chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani xonalari va o‘quv maydonlarini bosqichma-bosqich jihozlash. | 2023 — 2025-yillar | | |
| 36. | Xalq ta’limi vazirligi tasarrufidagi muassasalarda mavjud foydalanilmayotgan avariya holatidagi bino va inshootlarni buzish hamda atrofini obodonlashtirish. | 1. Xalq ta’limi vazirligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi, Qurilish vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va mahalliy davlat hokimiyati organlari vakillaridan iborat ishchi guruh tuzish. | 2022-yil 1-iyun | Xalq ta’limi sohasida islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov),* Davlat aktivlarini boshqarish agentligi *(Ortiqov),* Qurilish vazirligi *(Zokirov),* Ichki ishlar vazirligi *(Bobojonov)* |
| | | 2. Ishchi guruh tomonidan Xalq ta’limi tasarrufidagi muassasalarda mavjud foydalanilmayotgan avariya holatidagi bino va inshootlarni xatlovdan o‘tkazish hamda xatlov natijalari asosida manzilli ro‘yxatni shakllantirish. | 2022-yil 1-iyul | | |
| | | 3. Manzilli ro‘yxatga kiritilgan bino va inshootlarni belgilangan tartibda buzish hamda atrofini obodonlashtirish. | 2022-yil 1-oktabr | | |
| 37. | Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi sog‘lomlashtirish oromgohlari moddiy-texnika bazasini yaxshilash. | 1. Sog‘lomlashtirish oromgohlarini xatlovdan o‘tkazish. | 2022-yil iyul-avgust | - | Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov),* Moliya vazirligi *(Ishmetov),* Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi *(Boboyev),* O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi |
| | | 2. Xatlov natijalaridan kelib chiqib oromgohlar moddiy-texnika bazasini yaxshilash bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish. | 2022-yil 1-dekabr | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | *(Rafikov)*, manfaatdor vazirlik va idoralar |
| 38. | “Bolalar kutubxonalari” va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari kutubxonalarini “Elektron kutubxona” tizimiga ulash. | 1. “Elektron kutubxona” tizimiga ulanadigan “Bolalar kutubxonalari” va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari kutubxonalarining reja-jadvalini tasdiqlash.<br>2. Reja-jadval asosida “Bolalar kutubxonalari” va umumta’lim muassasalari kutubxonalarini “Elektron kutubxona” tizimiga ulash uchun bosqichma-bosqich jihozlash.<br>3. “Bolalar kutubxonalari” va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari kutubxonalari xodimlarida “Kutubxona kitob fondi va kitobxonlar ro‘yxatini yuritish” elektron platformasidan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish bo‘yicha qisqa muddatli o‘quvlarni tashkil etish. | 2023 — 2026-yillar davomida | Mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov)* |
| 39. | Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini davriy bosma nashrlar bilan ta’minlash. | Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini faqat xalq ta’limi yo‘nalishidagi davriy bosma nashrlar, xususan, “Ma’rifat”, “Uchitel Uzbekistana”, “Tong yulduzi”, “Klass!” gazetalari, “Xalq ta’limi”, “Til va adabiyot ta’limi”, “Boshlang‘ich ta’lim”, “G‘uncha”, “Gulxan” jurnallariga obuna qilish. | Doimiy | Umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga obuna uchun ajratilgan mablag‘lar | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Xalq ta’limi vazirligi *(Saidov)* |

*(1-ilova O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-iyundagi PF-92-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 13.06.2023-y., 06/23/92/0366-son)*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-son Farmoniga
2-ILOVA

## O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga kiritilayotgan o‘zgartirishlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1993-yil 5-fevraldagi “O‘zbekistonning o‘quvchi yoshlarini rag‘batlantirish choralari to‘g‘risida”gi PF-555-son Farmonining 7-bandi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmonining 1-ilovasida:

a) 8-bandi “i” kichik bandida:

beshinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

oltinchi xatboshi beshinchi xatboshi deb hisoblansin;

b) O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga ilovaning matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

**“O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining**

MAQSADLI KO‘RSATKICHLARI

| T/r | Ko‘rsatkichlar nomi | O‘lchov birligi | Yillar kesimida | | | | 2030-yilgacha erishiladigan natija* | Mas’ul vazirlik va idoralar |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | 2022 | 2023 | 2024 | 2025 | | |
| **I. Ta’lim mazmuni samaradorligini oshirish va kadrlarning sifat tarkibini yaxshilash** | | | | | | | | |
| 1. | O‘zbekistonning PISA xalqaro baholash dasturidagi o‘rni. | Xalqaro dasturdagi o‘rni | - | 70 | - | - | 30 | Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksi�si, Xalq ta’limi vazirligi |
| 2. | Xorijiy til (ingliz, fransuz, nemis, ispan, italyan, arab, xitoy, yapon, koreys, turk) bo‘yicha kamida B2 darajadagi xalqaro | Foizda (jami xorijiy til o‘qituvchilarisoniga nisbatan) | 10% | 21% | 31% | 40% | 100% | Xalq ta’limi vazirligi, Davlat test markazi |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | tan olingan yoki unga tenglashtirilgan milliy sertifikatga ega bo‘lgan xorijiy til o‘qituvchilari. | | | | | | | |
| 3. | Umumta’lim maktablaridagi o‘qituvchilar orasida oliy ma’lumotli o‘qituvchilar. | Foizda (jami o‘qituvchilar soniga nisbatan) | 90% | 91,5% | 93% | 95% | 100% | Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi |
| 4. | Umumta’lim maktablaridagi o‘qituvchilar orasida oliy toifali o‘qituvchilar. | Foizda (jami o‘qituvchilar soniga nisbatan) | 5% | 6% | 6,5% | 7% | 10% | Xalq ta’limi vazirligi, Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi |
| 5. | Umumta’lim maktablaridagi o‘qituvchilar orasida birinchi toifali o‘qituvchilar. | Foizda (jami o‘qituvchilar soniga nisbatan) | 15% | 16% | 18% | 20% | 25% | Xalq ta’limi vazirligi, Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi |
| 6. | Umumta’lim maktablaridagi o‘qituvchilar orasida toifaga ega o‘qituvchilar. | Foizda (jami o‘qituvchilar soniga nisbatan) | 50% | 55% | 62% | 67% | 80% | Xalq ta’limi vazirligi, Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi |
| 7. | Umumta’lim maktablarida har bir o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan o‘quvchilar. | O‘rtacha o‘quvchilar soni | 12 | 12 | 11 | 11 | 10 | Xalq ta’limi vazirligi, Moliya vazirligi |
| 8. | STEAM (aniq fanlar, texnologiya, injiniring, dizayn va matematika) yo‘nalishidagi fanlarni o‘qitish bo‘yicha o‘quv kurslaridan o‘tgan pedagoglar. | Foizda (jami tabiiy va aniq fanlar o‘qituvchilari soniga nisbatan) | - | 10% | 15% | 20% | 50% | Xalq ta’limi vazirligi |
| **II. Jamiyatda o‘qituvchining maqomini oshirish** | | | | | | | | |
| 9. | Xalq ta’limi tizimida faoliyat yuritayotgan soha xodimlarini davlat va tarmoq mukofotlari bilan taqdirlash. | Mukofotlanadiganlar soni | 1 100 | 1 200 | 1 400 | 1 500 | 2 000 | Xalq ta’limi vazirligi |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **III. Umumta’lim maktablarining moddiy-texnik bazasini yaxshilash, xalq ta’lim tizimida raqobatni kuchaytirish** | | | | | | | | |
| 10. | “Zamonaviy maktab” darajasiga keltiriladigan umumta’lim maktablari. | Foizda (jami maktablar soniga nisbatan) | 5% | 10% | 17% | 20% | 50% | Xalq ta’limi vazirligi |
| 11. | Tashkil etiladigan nodavlat umumta’lim muassasalari, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida. | Nodavlat umumta’lim muassasalari soni | 72 | 100 | 180 | 237 | 500 | Xalq ta’limi vazirligi |
| 12. | Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning ta’lim olishini bir navbatga (smenaga) o‘tkazish. | Bir navbatli maktablar foizda (jami maktablar soniga nisbatan) | 40% | 43% | 48% | 50% | 60% | Xalq ta’limi vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi |
| 13. | Moddiy-texnika bazasi yaxshilangan umumta’lim muassasalari. | Foizda (jami maktablar soniga nisbatan) | 25% | 30% | 35% | 40% | 100% | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Moliya vazirligi, Qurilish vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi |
| 14. | Isitish tizimi to‘liq ishlaydigan umumta’lim maktablari. | Foizda (jami maktablar soniga nisbatan) | 100% | 100% | 100% | 100 % | 100% | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Xalq ta’limi vazirligi |
| 15. | Umumta’lim maktablarini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash (maktablarni tashib keltiriladigan uzluksiz suv manbai bilan ta’minlash). | Uzluksiz suv manbai bilan ta’minlangan maktablar foizda (jami maktablar soniga nisbatan) | 80% | 85% | 95% | 100 % | 100% | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Xalq ta’limi vazirligi |
| **IV. Yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq e�ish** | | | | | | | | |
| **Birinchi tashabbus — yoshlarni madaniyat va san’at muassasalariga keng jalb etish** | | | | | | | | |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 16. | Umumta'lim maktablarida Faollar zalini tashkil etish yoki bo'sh xonalarni moslashtirish hamda jihozlash. | Faollar zali bilan ta'minlangan maktablar foizda (jami maktablar soniga nisbatan) | 80% | 80,5% | 81% | 82% | 85% | Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Xalq ta'limi vazirligi |
| 17. | Umumta'lim maktablarida Yoshlar teatr-studiyalarini tashkil etish. | F?izda (jami maktablar soniga nisbatan) | 30% | 32% | 34% | 35% | 40% | Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat vazirligi |
| 18. | Yoshlar teatr-studiyalariga o'quvchilarni jalb qilish. | Foizda (jami o'quvchilar soniga nisbatan) | 3% | 3,5% | 3,8% | 4% | 4,5% | Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat vazirligi |
| 19. | Umumta'lim maktablari o'quvchilarini san'at yo'nalishidagi to'garaklarga jalb etish. | Foizda (jami maktablar soniga nisbatan) | 10% | 15% | 20% | 25% | 30% | Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat vazirligi |
| 20. | Umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanini rivojlantirish maqsadida xor ijodiy jamoalarini tashkil etish. | Ishtirok etuvchi o'quvchilar foizda (jami o'quvchilar soniga nisbatan) | 2% | 2,1% | 2,3% | 2,5% | 3% | Xalq ta'limi vazirligi, Madaniyat vazirligi |
| 21. | O'quvchilar o'rtasida ichki turizmni rivojlantirish — "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" shiori ostida sayohatlar tashkil etish. | Foizda (jami o'quvchilar soniga nisbatan) | 2% | 2,1% | 2,3% | 2,5% | 2,5% | Xalq ta'limi vazirligi, Turizm va madaniy meros vazirligi |
| **Ikkinchi tashabbus — yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish** | | | | | | | | |
| 22. | Umumta'lim maktablarida sport zallarini barpo etish. | Sport zali bilan ta'minlangan maktablar foizda (jami maktablar soniga nisbatan) | 85% | 85,2% | 85,7% | 86% | 88% | Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Moliya vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Sportni rivojlantirish vazirligi |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 23. | Umumta’lim maktablarini sport jihozlari bilan ta’minlash va ma’nan eskirgan birlamchi sport anjomlarini yangilab borish. | Foizda (jami maktablar soniga nisbatan) | 15% | 20% | 25% | 30% | 40% | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Sportni rivojlantirish vazirligi, Moliya vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi |
| 24. | Umumta’lim maktablari o‘quvchilarining muntazam sport turlari bilan shug‘ullanishga jalb etilishi. | Foizda (jami o‘quvchilar soniga nisbatan) | 20% | 21% | 22% | 23% | 25% | Xalq ta’limi vazirligi, Sportni rivojlantirish vazirligi |
| **Uchinchi tashabbus — yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va Internetdan samarali foydalanish** | | | | | | | | |
| 25. | Umumta’lim maktablarini keng polosali Internet tarmog‘iga ulash. | Foizda (jami maktablar soniga nisbatan) | 100% | 100% | 100% | 100 % | 100% | Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi |
| 26. | Zamonaviy kompyuterlar bilan ta’minlash va mavjud ma’nan eskirgan kompyuter texnikalarini yangilash. | Foizda (ehtiyoj mavjud bo‘lgan kompyuter sinflari soniga nisbatan) | 30% | 40% | 50% | 60% | 100% | Xalq ta’limi vazirligi, Moliya vazirligi, Investitsiya va tashqi savdo vazirligi |
| 27. | Maktabdan tashqari ta’lim muassasalarida robototexnika, axborot texnologiyalari va dasturlash kabi zamonaviy to‘garaklar ulushi. | Foizda (jami to‘garaklar soniga nisbatan) | 3% | 6% | 9% | 10% | 15% | Xalq ta’limi vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi |
| 28. | Xalq ta’limi tizimini boshqarish axborot tizimining (ERP) joriy etilishi. | Foizda (jami maktablar soniga nisbatan) | 50% | 70% | 90% | 100 % | 100% | Xalq ta’limi vazirligi |
| 29. | Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali 1-sinflarga | Umumta’lim muassasalar soni | 500 | 700 | 900 | 1 000 | 5 000 | Xalq ta’limi vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | o‘quvchilar qabuli tashkil etiladigan umumta’lim muassasalari. | | | | | | | ini rivojlantirish vazirligi |
| 30. | Umumta’lim maktablarida “Elektron kundalik” axborot tizimini joriy etish. | Foizda (jami maktablar soniga nisbatan) | 60% | 75% | 90% | 100 % | 100% | Xalq ta’limi vazirligi |
| 31. | Umumta’lim maktablarida o‘quvchilar davomatini nazorat qilishning Yagona elektron apparat-dasturiy kompleksini joriy etish. | Foizda (jami maktablar soniga nisbatan) | - | 5% | 8% | 10% | 30% | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Moliya vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi |
| **To‘rtinchi t�shabbus — yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish** | | | | | | | | |
| 32. | Umumta’lim maktablarida kutubxonalar tashkil etish. | Foizda (jami maktablar soniga nisbatan) | 100% | 100% | 100% | 100 % | 100% | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Xalq ta’limi vazirligi |
| 33. | Umumta’lim maktablari kutubxonalarini lotin grafikasidagi badiiy adabiyotlar bilan ta’minlash. | Foizda (jami o‘quvchilar soniga nisbatan) | 30% | 31% | 34% | 35% | 40% | Xalq ta’limi vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi |
| 34. | Umumta’lim maktablarida doimiy kitobxonlar soni. | Foizda (jami o‘quvchilar soniga nisbatan) | 60% | 61% | 62% | 63% | 65% | Xalq ta’limi vazirligi |
| 35. | O‘zbek mumtoz va jahon adabiyoti (200 nomda) durdona asarlarini audio kitob shaklida nashr etish. | Foizda | 40% | 60% | 80% | 100 % | 100% | O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Xalq ta’limi vazirligi |
| **Beshinchi tashabbus — o‘quvchi-qizlarni ijtimoiy faol hayotga jalb qilish** | | | | | | | | |
| 36. | Umumta’lim maktablarining 10-11-sinf o‘quvchilari uchun | Sinf xonasi komplekti | 636 | 821 | 1054 | 1 286 | 1 950 | Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | "Tikuvchilik" yo'nalishi bo'yicha sinf xonalarini jihozlash. | | | | | | | Toshkent shahar hokimliklari, Xalq ta'limi vazirligi, Moliya vazirligi |
| 37. | Umumta'lim maktablarida "Tikuvchilik", "Oshpazlik" va "Qandolatchilik" yo'nalishlaridagi to'garaklarga o'quvchi-qizlarni jalb etish. | Foizda (jami o'quvchi-qizlar soniga nisbatan) | 8% | 8,5% | 9% | 10% | 12% | Xalq ta'limi vazirligi |
| 38. | Umumta'lim maktablarining 10-11-sinf o'quvchilari uchun "Oshpazlik" va "Qandolatchilik" yo'nalishlari bo'yicha sinf xonalarini jihozlash. | Sinf xonasi komplekti | 245 | 368 | 557 | 615 | 815 | Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Xalq ta'limi vazirligi |
| 39. | "Oshpazlik" va "Qandolatchilik" yo'nalishlariga o'quvchi-qizlarni jalb etish. | Foizda (jami o'quvchi-qizlar soniga nisbatan) | 7,7% | 8% | 9% | 10% | 13,5% | Xalq ta'limi vazirligi |
| 40. | Umumta'lim maktablarining 10-11-sinflari o'quvchilari uchun "Sartarosh" va "Kosmetolog" yo'nalishlari bo'yicha sinf xonalarini jihozlash. | Sinf xonasi komplekti | 102 | 132 | 185 | 227 | 370 | Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Xalq ta'limi vazirligi |
| 41. | "Sartarosh" va "Kosmetolog" yo'nalishlariga o'quvchi-qizlarni jalb etish. | Foizda (jami o'quvchi-qizlar soniga nisbatan) | 4,4% | 5% | 7% | 7,8% | 10,8% | Xalq ta'limi vazirligi |

*Izohlar:*

*1) maqsadli ko'rsatkich 2030-yilga qadar 100 foizni tashkil etgan taqdirda, ushbu ko'rsatkich keyingi yillarda saqlanib qoladi;*

*2) yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatkichlarga erishish uchun davlat organlari o'zlarining vakolatlari doirasida amaliy yordam ko'rsatadilar".*

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmonida:

a) 2, 3, 8, 9, 10, 11, 12 va 14-ilovalarning 15-pozitsiyalari chiqarib tashlansin;

b) 5-ilovaning 17-pozitsiyasi chiqarib tashlansin;

v) 13-ilovaning 16-pozitsiyasi chiqarib tashlansin.

*Oldingi tahrirga qarang.*

*(4-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-sonli Farmoniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son)*

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-son Farmonida:

a) 17-band o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

b) 1-ilovaning 10-pozitsiyasi chiqarib tashlansin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-iyuldagi “Davlat xizmatlari ko‘rsatish infratuzilmasini takomillashtirish va aholining davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6269-son Farmoni 4-ilovasining 9-pozitsiyasi chiqarib tashlansin.

*(Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022-y., 06/22/134/0407-son; 31.05.2023-y., 06/23/79/0302-son; 13.06.2023-y., 06/23/92/0366-son; 06.02.2024-y., 06/24/28/0099-son)*